

**ANDIJON SHAHAR HUDUDIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR ASOSIDA SHAHAR
TRANSPORTINI TARTIBGA SOLISH****To'raboyev Holmurod Rustamjon o'g'li***Andijon mashinasozlik instituti katta o'qituvchi**holmurodturaboyev@gmail.com**+998 99 499 46 08*

Annotasiya: *Ushbu muammoni hal qilish bo'yicha biz birinchi navbatda Andijon shahar ekologik muhitiga ta'sir etuvchi omillar hamda Andijon shahar hududiga kirib keluvchi oqimlar majmuini o'rganib ularni shahar hududiga kirishini cheklash bo'yicha tavsiya va natijalarni berib o'tamiz.*

Annotation: *In order to solve this problem, we will first study the factors affecting the ecological environment of Andijan city and the set of flows entering the city territory of Andijan, and give recommendations and results on limiting their entry into the city territory.*

Аннотация: *Для решения этой проблемы мы в первую очередь изучим факторы, влияющие на экологическую среду города Андижан и совокупность ручьев, впадающих на территорию города Андижан, и дадим рекомендации и результаты по ограничению их поступления на территорию города.*

Kalit so'zlar: *ekologik muhit, ifloslanish, yo'lovchi oqimi, avtovokzal, brutto-shartnoma, byudjet mablag'lari.*

Key words: *ecological environment, pollution, passenger flow, bus station, gross contract, budget funds.*

Ключевые слова: *экологическая среда, загрязнение, пассажиропоток, автовокзал, валовой контракт, бюджетные средства.*

Mamlakatimizda bugungi kunda barcha sohalarda o'sish sur'ati kuzatilib iqtisodiy rivojlanish yo'lida davom etmoqda. Albatta barcha o'zgarishlar va yangiliklar fuqarolarga yengillik yaratish hamda ular uchun qulay bo'lishi talab etilmoqda. Bugungi kunda Respublikamizning barcha hududlarida demografik o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, Andijon shahar aholisi rasmiy statistika asosida 500 ming nafarga yetdi.


Aholi sonining ortishi shahar hududida ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishiga olib kelib turli tuman ko'p qavatli turar joy majmualari barpo etishga olib kelmoqda.

Xo'sh demografik o'sish sur'atini tez fursatda o'sishi mazkur jarayondagi ekologik muhitga chambarchas bog'liq. Shahar hududlarida aholi sonining ortishiga parallel ravishda xizmat ko'rsatish, ishlar chiqarish korxonalarining ortishiga olib kelib, atmosfera havosining ifloslanishiga kuzatilmoqda.

Atmosfera havosining ifloslanishi asosan avtotransportlardan chiqariladigan zaharli gazlar uglerod, azot, oltingugurt oksidlari va chang bilan hamda og'ir metallar bilan ifloslanishi, shuningdek, o'simlik qoplami, xususan, manzarali daraxtlarning xususiyatlariga ta'siri, chiqindi zaharli moddalar tarkibidagi zararli kimyoviy elementlarni aniqlash va ularni kamaytirish borasida yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Atmosfera havosining ifloslanishining 40 foizi asosan avtotransportlar hissasiga to'g'ri keladi.

Shunga asosan bugungi kundagi asosiy muammo shahar hududidagi tirbandliklar, transport vositalari sonining keskin sur'atlarda ortishiga bog'liq bo'lmoqda.

Andijon shahridagi mavjud transport oqimlari asosan shahar hududiga kirib keluvchi shaxsiy transport vositalari, jamoat transportlari, yo'nalishli taksilar va yo'nalishsiz taksi tashkil etadi.



1-rasm. Andijon shahriga kirib keluvchi oqimlar

Albatta shahar hududidagi transport vositalari soni ortishi shahar hududidagi tirbandliklarni yuzaga chiqarib jamoat transporti harakatiga xalaqit berib shahar

ob-havosining ifloslanishiga olib kelmoqda. Andijon shahar hududiga bir kunda 123 ming.dan ortiq yo'lovchi oqimi kirib keladi (1-rasm). Ushbu yo'lovchi oqimlari jamoat transportida yoki yo'nalishli taksilarda kirib keladi. Mavjud holatlarda shaharning doimiy tirbandliklar o'chog'iga Eski shahar va Yangi bozor hududlari kiradi. Ushbu hududlardagi tirbandlikning asosiy sabablari avtomobillar uchun to'xtab turish uchun avtostansiyalar yo'q ekanligi oydin bo'lmoqda. Shuningdek, mazkur o'choqlarda avtostansiya tashkil etish uchun kerakli yer maydonining mavjud emasligidir.

Endilikda ushbu muammoni hal etish uchun Andijon shahriga kirib keluvchi va shahar bilan tutash qismlarda alohida avtovokzallar tashkil etish orqali hal etish mumkin. Shahar jamoat transporti harakatini mazkur avtostansiyalar orqali amalga oshirishi shahar atrofi hududidan kirib keluvchi oqimlarni shahar hududiga kirishini cheklab shahar hududidagi tirbandliklarni oldini olishga asos bo'ladi. Shuningdek, tirbandliklar hamda transport soni ortishini oldi olinib ekologik muhit yaxshilanishiga olib keladi.

2024-yil 1-yanvar sanasidan Andijon shahar jamoat transportida yaratilayotgan yangi tizim ya'ni brutto-shartnoma asosida faoliyat yuritishi belgilanayotganligi sababli ushbu tizimning samaradorligi ortib mahalliy byudjet mablag'larining oqilona sarflanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В.А.Хоjev. Avtomobillarda yuk va pasajir tashish asoslari. Darslik T., "O'zbekiston", 2002. 212-219 betlar.

2. Оверин, Ю.В. Влияние квалификации водителя на безопасность дорожного движения / Ю.В. Оверин Наука и современность – 2013.

3. Tavasszy, L. (2019). Predicting the effects of logistics innovations on freight systems: directions for research. Transport Policy.

INTERNET SAYTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/6410844>